

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNING TASHKIL ETILISHI

Xamroyeva Nargiza Shavkatovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarning tashkil etilishining ahamiyati va metodikasi ko'rib chiqiladi. Integratsiyalashgan ta'lism usullari o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Kalit so'zlar: Integratsiyalashgan ta'lism, boshlang'ich sinflar, dars metodikasi, fanlararo bog'liqlik, innovatsion ta'lism, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и методика организации интегрированных уроков в начальных классах. Интегрированные образовательные методы помогают сделать процесс обучения студентов более эффективным и интересным. Навыки творческого и критического мышления учащихся развиваются путем обеспечения связи между различными предметами.

Ключевые слова: Интегрированное образование, начальные классы, методика преподавания, междисциплинарность, инновационное образование, эффективность.

Kirish

Hozirgi kunda ta'lism jarayonida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni yaxlit holda o'zlashtirishga erishish mumkin. Integratsiyalashgan darslar turli fanlarni bir-biri bilan bog'lab o'qitish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Asosiy qism

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda. Hatto, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalaridagi fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlar ham tizimli o'zaro bog'liqlikni ta'minmagan holda o'qitilmoqda.

Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Zamonaviy didaktika o'quv fanlarini integratsiyalashga bir qancha yondashuvlarni taklif qiladi, biroq hali bu jarayonning umume'tirof etilgan mazmuni, shakl va vositalari yaratilgan emas. Ko'pchilik pedagog olimlar ta'limgagi integratsion jarayonlarni o'rganishda fundamental fanlarni integratsiyalashdagi tasavvurlardan kelib chiqqan holda ish ko'radilar.

Bu holat integratsiyaning dastlab fundamental tarmoqlarda amalga oshib, keyinchalik pedagogika sohasiga tarqaganligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

fanlardan farq qiladi. Faqat bu farq ular mazmunida emas, balki bilimlarning berilish shakli, hajmi va bayon qilinish chuqurligida o'z aksini topadi.

O'quv fanini o'rganishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'ektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'ektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. SHu sababli, o'quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi.

Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.

O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

O'quv fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganishda sub'ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o'quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko'rsatmoqda. Biz, ta'lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo'lib o'qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdomiz. O'quv fanlari nisbatan mustaqil bo'lishi kerak, chunki ularning har biri o'z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi.

SHu bilan birga, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish bilan bog'liq imkoniyatlar ro'yobga chiqarilishi lozim. Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Uni o'quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub'ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta'lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo'nalish sifatida qaraymiz. Biz o'quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o'zaro bog'lanmagan holda o'rgatilganda shakllantirish mumkin bo'lмаган sub'ektiv yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, — degan kontseptual g'oyaga tayanamiz.

1. Integratsiyalashgan ta'limning mohiyati

Integratsiyalashgan ta'lim – turli fanlar o'rtasida bog'liqliki yaratish orqali bilimlarni yaxlit holda taqdim etish usulidir. Bunda o'quvchilar har xil fanlarni alohida o'rganish o'rniiga, ularni bir-biri bilan bog'lab tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

2. Integratsiyalashgan darslarning afzalliklari

O'quvchilarning qiziqishini oshiradi – bir necha fanlarni birlashtirib o'rganish natijasida darslar qiziqarli bo'лади.

Bilimlarning yaxlitligini ta'minlaydi – o'quvchilar o'rganilayotgan mavzularni kontekstda tushunadilar.

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi – muammoli vaziyatlarni yechishda turli fanlar asosida yechim topish ko'nikmasi shakllanadi.

Amaliy ko'nikmalarni oshiradi – olingan bilimlarni turli yo'nalishlarda qo'llash imkoniyati yaratiladi.

3. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish usullari

Mavzu bo'yicha integratsiya – bir necha fanlarda o'xhash mavzularni o'rganish.

Muammoli integratsiya – muammoli topshiriqlarni turli fanlar yordamida yechish.

Loyihaviy yondashuv – o'quvchilar mustaqil ravishda bir necha fanlarni o'z ichiga olgan loyihalar ustida ishlaydilar.

Didaktik o'yinlar – turli fanlarni o'z ichiga olgan interfaol o'yinlardan foydalanish.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, matematika, musiqa va boshqa fanlari nominigina emas, balki yon atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, turli-tumanligining bir butunligi va qiziqarliligi bilan belgilanadi.

Shunday paytda, ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo integratsiyadan kengroq foydalanish zarur. Ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik tamoyiliga asoslangan ta'lim muassasalaridan foydalanish kerak. Fanlararo uzviylik tamoyili fanlararo munosabatlarning murakkab tomonlarini to'la anglab yetishni va bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishni ta'minlaydi, bu esa turli tizimlarning o'zaro bog'liqligiga, integral yaxlitlikka olib keladi.

Ta'limning integratsiyasi fanlararo aloqaning yuqori darajasi, yaxlit bilimlarni yaratish imkonini beruvchi vositadir. Integratsiya tushunchalari turlicha. Ushbu ta'riflarning umumiy jihatni shundaki, integratsiya atrofimizdagi mavjudotning yaxlit ko'rinishiga erishishdir.

Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqe-hodisalarini bir necha tomondan ko'rishi muhimdir.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagи bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Biroq, integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "yoz", "issiq", "quyosh", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki bolalarning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, integratsiyalashgan darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va real

hayotda bilimlarini qo'llashga o'rgatadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda ushbu metodikani keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Xamroyeva, N. (2024). O 'QUVCHILARNING MEHNAT TARBIYASIDA MEHNAT AN'ANALARINING O 'RNI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 637-650.
2. Shavkatovna, X. N. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 270-273.
3. Jo'Rayeva, D. O. (2024). EDUCATIONAL VIEWS OF PEDAGOGUES TOWARDS THE ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (4-1 (119)), 194-197.
4. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
5. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. *Академические исследования в современной науке*, 2(24), 148-152.
6. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(1), 8-15.
7. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O 'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(1), 16-21.
8. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 51-56.
9. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 57-62.
10. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 1-7.
11. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPEKMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 14-20.
12. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 8-13.
13. Ravshanovich, A. O. HISSIY ZO 'RIQISHLAR VA OBSESSIYALARDAN XALOS BO 'LISH USULLARI VA TAVSIYALAR. *ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ*, 87.
14. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL
15. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 429-435.
16. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKIOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'SТИRISH

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 947-949.

17. Tajiddinovna, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 469-475.
18. Исомова, Ф. Т. (2024). Виды образования и их влияние на развитие личности. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 461-468.
19. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA "ILK QADAM" DASTURI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 603-608.
20. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). FIRST STEP PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 609-614.
21. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). THE ISSUE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 615-620.
22. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. Modern Science and Research, 2(6), 1223-1226.
23. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BOLALARINING IJTIMOIY MOSLASHUVI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 590-595.